

Oriental Journal of Philology**ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY**

journal homepage:

<http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about>**STYLISTIC FEATURES OF ENGLISH CRIME FICTION WRITERS*****Dilnoza Sohijonovna Sultonova****Doctorate of Namangan State University*dilnozasultonova@748gmail.com*Namangan, Uzbekistan***ABOUT ARTICLE**

Key words: crime fiction genre, English literature, writing style, stylistics, detective narrative, Arthur Conan Doyle, Edgar Allan Poe, Agatha Christie, linguopoetic analysis, literary language.

Received: 01.01.26**Accepted:** 02.01.26**Published:** 03.01.26

Abstract: This article presents a stylistic analysis of the works of prominent authors within the crime fiction genre in English literature. It focuses on the literary style, narrative structure, dialogues, psychological portrayal of characters, attention to detail in representing reality, and the incorporation of mystery-enhancing elements in the writings of notable figures such as Arthur Conan Doyle, Edgar Allan Poe, and Agatha Christie. The study explores the historical development of crime fiction in English literature and its influence on contemporary writers. Special attention is paid to the linguistic features characteristic of the detective genre and their impact on the literary language, analyzed through a linguopoetic approach. The findings of the research contribute to a deeper understanding of the stylistic aspects of English crime fiction and offer a foundation for comparative studies with Uzbek literature.

INGLIZ KRIMINALISTIK ASAR YOZUVCHILARINING USLUBI***Dilnoza Sohijonovna Sultonova****Namangan davlat universiteti doktoranti*dilnozasultonova@748gmail.com*Namangan, O'zbekiston***MAQOLA HAQIDA**

Kalit so'zlar: kriminalistik janr, ingliz adabiyoti, uslub, stilistika, detektiv syujet, A. K. Doyl, Edgar Po, Agata Kristi, lingvopoetik tahlil, badiiy til.

Annotatsiya: Ushbu maqolada ingliz adabiyotidagi kriminalistik janr vakillarining uslubiy xususiyatlari tahlil qilinadi. Jumladan, A. K. Doyl, E. Po, A. Kristi kabi mashhur yozuvchilarning badiiy uslubi, syujet qurilishi,

dialoglar, personajlar psixologiyasi, voqelikni yoritishdagi detalizm va matnga sirli tus beruvchi elementlar stilistik jihatdan o'rganiladi. Maqolada kriminalistik nasrning ingliz adabiyotidagi shakllanish bosqichlari va ularning zamonaviy yozuvchilarga ta'siri ham ko'rib chiqiladi. Shuningdek, detektivlik janriga xos bo'lgan til birliklarining ishlatilishi va adabiy tilga ta'siri lingvopoetik tahlil asosida ochib beriladi. Tadqiqot ingliz kriminalistik nasrining stilistik xususiyatlarini chuqurroq anglashga va ularni o'zbek adabiyoti bilan qiyoslashga asos bo'la oladi.

СТИЛЕВЫЕ ОСОБЕННОСТИ АВТОРОВ КРИМИНАЛЬНОЙ ПРОЗЫ В АНГЛИЙСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ

Дильноза Сохибжановна Султонова

Докторант Наманганский государственный университет

dilnozasultonova@748gmail.com

Наманган, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые	слова:	Аннотация:
криминалистический жанр, английская литература, стиль, стилистика, детективный сюжет, А. К. Дойл, Эдгар По, Агата Кристи, лингвопоэтический анализ, художественный язык.		В данной статье анализируются стилевые особенности представителей криминалистического жанра в английской литературе. В частности, рассматриваются художественный стиль таких известных писателей, как А. К. Дойл, Эдгар По, Агата Кристи, построение сюжета, диалоги, психология персонажей, внимание к деталям в описании событий и элементы загадочности в тексте с точки зрения стилистики. Также в статье рассматриваются этапы формирования криминалистической прозы в английской литературе и их влияние на современных авторов. Особое внимание уделяется использованию языковых единиц, характерных для детективного жанра, и их влиянию на литературный язык, на основе лингвопоэтического анализа. Исследование способствует более глубокому пониманию стилистических особенностей английской криминальной прозы и может служить основой для её сопоставления с узбекской литературой.

Kirish. Adabiyot har bir davr va jamiyatning ijtimoiy-psixologik holatini, mafkuraviy qarashlarini, estetik didini aks ettiruvchi muhim madaniy hodisa sifatida shakllanib kelgan. Turli

janrlar taraqqiyoti esa bu jarayonning murakkab va serqirra kechishini ko'rsatadi. Shulardan biri bo'lgan kriminalistik (detektiv) janr XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab ingliz adabiyotida alohida o'rin egallay boshlagan bo'lib, bugungi kunda butun dunyo kitobxonlarini o'ziga jalb qilgan mashhur janrlardan biriga aylangan. Mazkur maqolada ingliz kriminalistik adabiyotining yirik vakillarining nasriy asarlaridagi uslubiy xususiyatlar tahlil qilinadi. Asosiy e'tibor syujet qurilishi, personajlar xarakteri, nutq uslubi, dialoglar, tasviriy vositalar, sirli muhit yaratish usullari kabi jihatlariga qaratiladi. Tadqiqot, shuningdek, ingliz kriminalistik nasrining uslubiy xususiyatlarini o'zbek adabiyoti kontekstida qiyoslash uchun nazariy asos ham bo'lib xizmat qiladi.

Asosiy qism. Ingliz tadqiqotchilaridan Jon Skaggs (2005) (Scaggs, 2005), Martin Priestman (2003) (Priestman, 2003) va Heter Uorington (Worthington, 2011) kabilar o'z izlanishlarida qayd etganlaridek, ingliz adabiyotida kriminalistik mavzudagi asarlar bugungi darajaga kelguniga qadar, tarixan uzoq yo'lni bosib o'tdi.

Kriminalistik asarlar adibdan adibga, asardan asarga o'tish jarayonida rivojlanib, sayqallanib bordi. Jinoyat mavzusi va unga qarshi kurashishning turli usul va vositalarini badiiy aks ettirishda har bir adib o'ziga xos yondashuv va uslublar olib kirishga urindi. Aksariyat asarlar tezda film va seriallarga aylantirildi. Natijada bu turkum asarlar o'z kitobxonlar doirasini kengaytirdi.

Ingliz tadqiqotchilaridan biri Karen Seago "Introduction and overview: crime (fiction) in translation" ("Kirish va umumiy tavsif: jinoyat (asarlar) tarjimada") maqolasida har bir janr turi o'ziga xos uslubiy-badiiy xususiyatlarga ega ekanligi va bu xususiyatlar tarjimonlar uchun ham bir qator qiyinchiliklar tug'dirishi haqida bahs yuritadi (Seago, 2014, 13).

1841-yilda Edgar Allan Po "Morg ko'chasidagi qotillik" asarini yozib, u butun bir "badiiy kriminal asar janri" (genre of crime fiction) ga asos soldi (Szpak, 2011). Yozuvchi E.A.Poning asaridagi bosh qahramon Ogyust Dyupin o'z faoliyati bilan ushbu janrdagi keyingi mashhur obrazlar: Sherlok Xolms va Erkyul Puaro kabilar uchun o'ziga xos namuna bo'lgan. Bu obrazlarning har uchasi ham asar davomida politsiya bilan muntazam hamkorlik qiladi. Mazkur holat ingliz adabiyotidagi dastlabki kriminal asarlar uslubida muayyan o'xshashlik, yozuvchilar uslubida izdoshlik an'analari mavjud bo'lganini ko'rsatadi.

Bu xususda ingliz olimi Bill Filips quyidagi fikrlarni ilgari suradi:

"Poning qahramoni, miyali va mulohazakor Chevalier Ogyust Dyupin jami uchta qisqa hikoyada namoyon bo'ladi: "Morg ko'chasidagi qotillik", "Marie Rogetning siri" (1842) va "Purloined Letter" (O'g'irlangan xat) (1844). Po modeli ko'plab yozuvchilarga, eng mashhurlari Artur Konan Doyl va Agata Kristiga katta ta'sir ko'rsatdi. Doylning "Sherlok Xolms" hikoyalari va Agata Kristining "Puaro" romanlari Podan bir qator xususiyatlarni meros qilib olishgan. Misol uchun, hikoyalar, go'yoki, buyuk detektivning yordamchisi tomonidan yozilgan. Dyupin "ishi"da,

garchi har doim hikoyada mavjud bo'lsa ham, u anonim; Xolmsda doktor Uotson bor; va Puaroda – kapitan Xastings. Jinoyatlar har doim ochiladi va quyi tartib a'zolaridan tashkil topgan muvaffaqiyatsiz politsiya xizmati tuzatib bo'lmaydigan darajada qobiliyatsiz qilib ko'rsatiladi" (Philips, 2016, 7) Shu o'rinda B.Filipps Po boshlab bergan "model"ni tanqid ham qiladi. Bu modelga ko'ra, yuqoridagi qahramonlar Dyupin, Xolms va Puaro adolat yoki adolatli jamiyat haqida qayg'urmay, faqat o'zlarining "ego"larini qondirish uchun jumboqlarni hal qilish bilan shug'ullanishadi. Kamdan kam hollarda, ular tergov qilayotgan jinoyatlar ortidagi ijtimoiy sabablar oshkor bo'ladi (Philips, 2016, 5).

Ingliz kriminalistik adabiyotining "Oltin davri" (Agata Kristi yashab ijod qilgan yillar) dan keyin, 1970-yillarda detektiv yozuvchilar Amerikaning "qaynoq" (hard boiled) detektiv janri paydo bo'lgach, bu holat o'zgara boshlagan.

"Dunyo kriminalist yozuvchilar hozirda diskriminatsiya (kamsitish), korrupsiya, tengsizlik, qashshoqlik va adolatsizlik kabi mavzularni ko'tarib chiqish uchun bir vosita sifatida bu janrdan foydalanmoqdalar. Jinoiy roman...bugungi kunning ijtimoiy romanidir" (Philips, 2016, 5-15).

Shu o'rinda Artur Konan Doyl asarining o'ziga xosligi haqida ham mutaxassislar ko'plab ijobiy fikr bildirishgan. Jumladan, ingliz olimi Jon Hodgson o'zining "Artur Konan Doyl (1859 – 1930)" ijodiy faoliyatiga bag'ishlangan tadqiqotida quyidagilarni qayd etadi: "Sherlok Xolms asrlar davomida figuraga, adabiy arxetipga aylandi. U Odissey yoki Don Kixot kabi universal adabiy qahramon. Sh. Xolms ham ular kabi har doim umumiy mavzuga ega, lekin behad xilma-xil bo'lgan bir qator sarguzashtlari bilan mashhur" (Philips, 2016, 649). Ushbu iqtibosdan ko'rinadiki, garchi Sherlok Xolms obrazi ma'lum jihatlariga ko'ra, o'zidan oldingi mashhur badiiy obrazlarga o'xshasa-da, uning o'ziga xosliklari ham talaygina. Buni bugungi kunda ko'plab yosh kitobxonlar eng mashhur detektiv qahramonlardan biri sifatida Xolmsni eslashlaridan ham sezish qiyin emas.

Detektiv adabiyot eng rivojlangan davrda yashagan va uning rivojiga salmoqli hissa qo'shgan ingliz yozuvchilaridan biri Agata Kristidir. Ta'kidlash kerakki, jahon adabiyotida adibaning asarlaridagi uslubiy o'ziga xosliklarni tahlil etgan ko'plab tadqiqotlar mavjud. Jumladan, global internet tarmog'ida yozuvchi haqida atroflicha ma'lumot beradigan alohida sayt ham mavjud (Philips, 2016, 649).

Saytdagi maqolalardan birida aytilishicha, Agata Kristi o'zi bilgan va ko'rgan dunyo haqida o'z oilasining do'stlari va tanishlari doirasidagi harbiy janoblar, lordlar va xonimlar, xizmatkor ayollar, bevalar va shifokorlarga tayangan holda yozgan. U tabiatan kuzatuvchan shaxs edi va uning qishloq siyosati, mahalliy raqobat va oilaviy rashk haqidagi ta'riflari ko'pincha juda aniq. Metyu Prichard uni: "Gapirishdan ko'ra ko'proq tinglaydigan, guvohlardan ko'ra unda (asl voqeada – S.D.) ko'proq narsani ilg'ab oladigan shaxs", deb ta'riflaydi (Christie, 2021,).

Adiba ijodida oddiy kundalik voqealar ham, tasodifiy kuzatishlar ham yangi sujet g'oyalarini shakllantirgan. Uning ikkinchi kitobi "Yashirin dushman" – kafeda eshitilgan suhbat natijasida dunyoga kelgan: "Ikki kishi yaqin atrofdagi stolda Jeyn Fish ismli kimnidir muhokama qilishayotgan edi ... Menimcha, bu voqeani yaxshi boshlasa bo'ladi – bu ismni eshitdim. Kafeda – g'ayrioddiy nom, shuning uchun uni eshitgan kishi uni eslab qoladi (Christie, 2021,)

Shu o'rinda o'zbek adabiyotshunoslaridan biri To'xta Boboyevning fikrini keltirish o'rinli: "... hayotni ko'ra bilish, kuzatish chuqur individual hodisa – har bir yozuvchi turmushni o'ziga xos ko'z bilan ko'radi" (Boboyev, 2002, 558).

Bundan kelib chiqadiki, ijodkorning atrofni kuzatishi, asar uchun material va voqealarning tanlashi bilan bog'liq barcha vaziyatlarda yozuvchining ijod jarayonidagi ijtimoiy pozitsiyasi, ideallari, hayotiy va ijodiy tajribalari – hammasi namoyon bo'ladi. Mazkur holatlar yozuvchining individual uslubini shakllantirib boradi.

Agata Kristining o'zi ham "An Autobiography" ("Avtobiografiya") da o'z ijod qilish uslubi haqida qiziqarli fikrlarni yozib qoldirgan. Adiba asarlaridagi sujetlarning paydo bo'lishi haqida "Sujetlar shunday oddiy lahzalarda, qachonki men ko'cha bo'ylab ketayotganimda yoki shlyapalar do'konini ko'zdan kechirayotganimda xayolimga keladi ... birdan miyamga ajoyib fikr keladi" (Christie, 2001, 560)., - deb yozar ekan, uning o'ta kuzatuvchan, ziyrak inson bo'lganini aniqlaymiz.

Adiba o'z "Avtobiografiya"sida aynan jinoyat mavzusida asar yozish uslubi haqida quyidagi mulohazalarni keltirib o'tadi.

"As a result of writing crime books one gets interested in the study of criminology. I am particularly interested in reading books by those who have been in contact with criminals, especially those who have tried to benefit them or to find ways of what one would have called in the old days 'reforming' them - for which I imagine one uses far more grand terms nowadays!" (Christie, 2001, 560)

("Jinoyat kitoblarini yozish natijasida kriminologiyani o'rganishga qiziqish paydo bo'ladi. Men jinoyatchilar bilan muloqotda bo'lgan, ayniqsa, ularga foyda keltirmoqchi bo'lgan yoki eski kunlarda ularni "isloh qilish" deb atagan yo'llarini topishga harakat qilganlarning kitoblarini o'qishga qiziqaman – bular, men tasavvur qilamanki, bugungi kunda juda katta shartlar!")

Bu fikrdan jinoyat haqidagi asar yozishda yozuvchi qanchalik ko'p izlanish olib borishi kerakligini anglaymiz.

Ma'lumki, ijod jarayonidagi eng qiyin muammolardan biri bu qisqartirish va tahrir qilishdir. Agata Kristi "On Brevity" ("Qisqartirish haqida") shunday degan edi:

“There is no doubt that the effort involved in typing or writing does help me in keeping to the point. Economy of wording, I think, is particularly necessary in detective stories. You don't want to hear the same thing rehearsed three or four times over” (Christie, 2001, 560).

(“Hech shubha yo‘qki, matn terish yoki yozish bilan bog‘liq harakatlar menga fikrni davom ettirishga yordam beradi. Menimcha, so‘z tejamkorligi detektiv hikoyalarda ayniqsa zarur. Ayni bir narsani uch yoki to‘rt marta takrorlaganini eshitishni xohlamaysiz”).

Qolaversa, yozuvchi har bir asari ustida ko‘p izlangan va qayta-qayta ishlanganini, hatto chop etilgan asarlari ustida ishlash jarayonida ortiqcha so‘z va tasvirlar qo‘llashdan qochganini quyidagi misoldan bilish mumkin: “Karib dengizi siri” romanining ilk varainti “Qari qurbaqa” nomi bilan 1964-yilda nashr etilgan. Unda Karib oroli chiroyli tasvirlangan va bunda ehtimol, Kristi ta‘tilda tashrif buyurgan Sent-Lyus oroli tasviriga asoslanilgan. Ammo uning boy tasavvuridagi yuzlab sujetlar va qizil seldlarning ko‘plari asarning keyingi nashrlarida olib tashlangan. U o‘zi aytganidek: “Birinchii bob uchun qaydlarni yozayotganingizda yoki o‘z-o‘zingizga gapirib va voqeani kengaytirib qarab yurganingiz bilan, hech narsa siz o‘ylagandek bo‘lmaydi” (Christie, 2001, 456).

U har bir kitobini yozishni boshlashidan oldin, avvalo, yon daftaridagi barcha sujet tafsilotlari va izohlarini ko‘zdan kechirib chiqishiga ko‘p vaqtini sarflardi (Christie, 2021)

Umuman olganda, Agata Kristining ijod qilish uslubini o‘rganish jarayonida adiba asarlari tinimsiz izlanishlar, yozuvchining ko‘p vaqtini, ko‘z nurini “qurbon” qilishi natijasida yuzaga kelganini sezish qiyin emas.

Ingliz adabiyotida kriminalistik mavzuda asarlar yaratish shu qadar rivojlanganki, adiblar va ularning asarlari, o‘ziga xos jihatlari haqida ko‘p yozish mumkin. Jumladan, eng yaxshi kriminalist yozuvchilar orasida klassik sirli detektiv (mystery) janr mualliflari: Robert Parker, Robert Kreys kabilar; “qaynoq” (hard-boiled) detektiv asarlari bilan kriminal adabiyotning bu turini rivojlanishiga hissa qo‘shgan Raymond Chendler (“The big sleep”, “The Little sister”); hayoti asarlaridek rang-barang bo‘lgan va romanlari yarim avtobiografik deb hisoblangan yoki hech bo‘lmaganda o‘z hayotiy tajribalaridan ilhomlanib ijod qilgan Jim Tompson (“The killer inside me”, “Savage night”, “A hell of a woman”) kabilar ro‘yxatini uzoq davom ettira olamiz.

Ba‘zi eng yaxshi jinoyat haqidagi asar mualliflari psixologik keskinlik, hissiyot va sirlilikni daliliy ashyolar bilan bog‘liq holda berishning uyg‘un formulasini topa oladilar. Eng yaxshi kriminalistik romanlar o‘quvchilarga asar davomida voqealarning kutilmagan evrilishlar va burilishlari (peripetiya)ni taklif qiladi. Shu orqali kitobxon asl sir va jinoyatning tagiga yetish uchun kitobni qanday o‘qib tugatganini bilmay qoladi.

Kriminalistik mavzudagi mashhur asar mualliflari qatorida R.Parker va G.Gremlar ham o'nlab yillar davomida nihoyatda murakkab, qiziqarli sirli romanlar va detektiv janrga mansub asarlar yozishga muvaffaq bo'lishgan.

K.Jonatan, K.Patrisiya va L.Denis singari qator yozuvchilar kriminal adabiyotda seriyali jinoyat mavzusidagi asarlarni yozib, ingliz kitobxonlarining sevimli qahramoniga aylangan obrazlarini yaratdilar.

“Ajdahe tatuirovkali qiz” asari muallifi Stayg Larson kabi ayrim yozuvchilar jinoyat mavzusidagi birgina badiiy asari bilan ham kriminalistik adabiyotda chuqur iz qoldira olishini isbotlashdi. Bundan kelib chiqadiki, ijodkorning ma'lum bir mavzuda qator asarlar yaratgani hamisha ham muhim sanalavermaydi. Adabiy ijod jarayonida hal qiluvchi omillardan biri bu asarning o'ziga xos uslubi, g'oyasi va badiiylilik darajasidir.

Umuman olganda, ingliz adabiyotida kriminalistik asar keng tushuncha bo'lib, u o'z ichiga ko'plab asar turlarini qamrab oladi.

- 1) Ilk detektiv asarlar. Masalan, Edgar Allan Podan boshlab, Artur Konan Doylning “Sherlok Holmsning sarguzashtlari” asarlarigacha;
- 2) Kriminalistik adabiyotning “Oltin davri” deb ta'riflanadigan Agata Kristi yashagan davrda yaratilgan jumboqlarga to'la detektiv asarlar;
- 3) Ingliz adabiyotida paydo bo'lgan va hozirga qadar ommabopligini yo'qotmay kelayotgan “qaynoq” (hard boiled) detektiv asar namunalari;
- 4) Professional tergov guruhlarida haqida hikoya qiluvchi politsiya romanlari hamda sirli trillerlar va boshqalar.

Ushbu asar turlarining barchasi o'ziga xos uslubga ega. Jumladan, dastlabki jumboqli sirli detektiv asarlardagi voqealar ko'pincha qishloqda yoki shahar chetida joylashgan boy xonadon egalari va ularning kambag'al xizmatchilari yashagan mahobatli, ko'p qavatli uyda tasvirlanishi ko'p uchragan. Bunda sinfiylilik va boylikni turli yo'llar bilan qo'lga kiritish omillari voqealarni harakatlantiradi.

“Qaynoq” (hard boiled) badiiy asarda hissiy kechinmalar va obrazlar fikrini ifodalashdan ko'ra, harakatli lavhalar ko'p uchraydi. Voqealar o'ziga xos muhitda – ko'pincha uyushgan jinoyatchilar izg'ib yuradigan yoki in qurib olgan shahar ko'chalarida tasvirlanadi. Obrazlar tilida “ko'cha” jargonlari ko'p uchraydi. Kundalik, zamonaviy, ko'pincha ixcham ohangda gapirishadi. Uslub bu yerda markaziy o'rinni egallaydi, og'zaki nutq va jargon bilan ishlash; ammo tezkor sur'at, harakat va olishuv sahnalarining dinamik tavsifi asarni jonli qiladi.

Xulosa. Politsiya prosessual romanlarida esa institutsional tartib-qoidalarga, jamoada birgalikda harakatlanish dinamikasiga urg'u beriladi. Professional til va kontekst, huquqiy

atamalar, sud-huquq sohasiga oid iboralar ko'p qo'llanadi. Ularda mamlakat huquqni muhofaza qilish tizimi – politsiya tarkibidan tortib, tergov jarayonlarining borishi batafsil gavdalaniriladi.

Trillerlarda patologiya, sud-tibbiyotga oid atamalar ham voqealar rivojida hal qiluvchi rol o'ynaydi, shuningdek, o'quvchiga ta'sir ko'rsatish uchun shubhalanish, hayajon, qo'rquv singari turli xil hissiy kechinmalar tavsifiga ham keng o'rin beriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Scaggs J. Crime fiction. Routledge: Abingdon. 2005.
2. Priestman M. The Cambridge companion to crime fiction. Cambridge: Cambridge UP. 2003.
3. Worthington H. Key concepts in crime fiction. Basingstoke: Palgrave Macmillan. 2011.
4. Seago K. Introduction and overview: crime (fiction) in translation, The Journal of Specialised Translation, Issue 22 – July 2014. – p.2-13
5. Barcha ingliz adabiyotshunoslarining jinoyat haqidagi asarlarga oid tadqiqotlarida bu mavzudagi ijod namunalari “genre of crime fiction”– “kriminal asar janr” deya ta'riflanadi.
6. Szpak A. Characteristics of Crime Fiction. // <https://penandthepad.com/characteristics-crime-fiction-8661074.html>. 28 June 2011.
7. Philips B. Crime Fiction: A Global Phenomenon. IAFOR Journal of Literature & Librarianship. Volume 5, Issue 1, Autumn, 2016. – P. 7.
8. O'sha joyda. – P. 5.
9. Philips B. Crime Fiction: A Global Phenomenon. IAFOR Journal of Literature & Librarianship. Volume 5, Issue 1, Autumn, 2016. – P. 5 – 15.
10. Hodgson A. John, Arthur Conan Doyle (1859 – 1930) . A Companion to Crime Fiction. Edt. by Rzepka Ch.J. and Lee Horsley A John Wiley & Sons Ltd., Publication, 2010. – P. 649.
11. <https://www.agathachristie.com>
12. On Writing: Agatha Christie's Advice // <https://www.agathachristie.com/news/2021/on-writing-agatha-christies-advice> 10th September 2021
13. On Writing: Agatha Christie's Advice // <https://www.agathachristie.com/news/2021/on-writing-agatha-christies-advice> 10th September 2021
14. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. – T. “O'zbekiston”, 2002. – B.558.
15. A.Herrick,W.R. Agatha Christie: An Autobiography. (First published January 1, 1977). Harper Collins Publishers. 2001. – P. 560.

16. Christie, A. Herrick, W.R. Agatha Christie: An Autobiography. (First published January 1, 1977). Harper Collins Publishers. 2001. – P. 560.

17. O`sha joyda.

18. Christie, A. Herrick, W.R. Agatha Christie: An Autobiography. (First published January 1, 1977). Harper Collins Publishers. 2001. – P. 456.

19. On writing: Agatha Christie's advice // <https://www.agathachristie.com/news/2021/on-writing-agatha-christies-advice>. 10th September 2021.